



USMON AZIM IJODIDA FASLLARNING INDIVIDUAL TASVIRI

Toshmamatova Farangiz Ulug'bek qizi

NavDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson qalbidagi nozik hislarni va ehtirosli tuyg'ularni ifodalashda betakror tashbehlardan foydalangan holda qalam tebratayotgan Usmon Azim ijodidagi yil fasllarini tasvir etishning o'ziga xos uslubi va badiiy mahorati tadqiq etildi.*

Kalit so'zlar: *Ijodkor, obraz, yil fasllari, tabiat, kuzak, yoz, qish, bahor, ijodkor "men"i, ruhiyat, bolalik.*

Аннотация: *В статье рассматривается уникальный стиль и художественное мастерство изображения времен года в творчестве Османа Азима который использует уникальные метафоры для выражения тонких чувств и страстных эмоций человеческого сердца.*

Ключевые слова: *Творческий, изображение, сезоны, природа, осен, лето, зима, весна, творческое "Я", дух, детство.*

Annotation: *This article examines the unique style and artistic skill of depicting the seasons in the works of Osman Azim, who uses unique metaphors to express the subtle feelings and passionate emotions of the human heart.*

Kywords: *Creative, image, seasons, nature, autumn, summer, winter, spring, creative "I", spirit, childhood.*

Kirish: Badiiy adabiyotda inson his-tuyg'ularini, uning ichki dunyosini, kechinmalarini, ehtirosleri, bo'layotgan jarayonlardan ta'sirlanish holatlarini, umuman olganda tafakkurni rivojlantiruvchi va tasavurni paydo etuvchi har qanday holatni yoki voqeani obrazli qilib tasvirlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mana shu obrazlar orqali hayotni tushunish, tushuntirish, hayot mohiyatini anglab yetish, bizni o'rab turgan borliqqa munosabat bildirish va atrofdagi muhitga, jarayonga bevosita ta'sir ko'rsata olish holatlari yuzaga chiqadi. Mana shunday badiiy kuchga ega bo'lgan obrazlar tizimi Usmon Azim ijodida o'ziga xos ko'rinishda, o'ziga xos talqinda namayon bo'ladi. Yuksak badiiy mahoratga ega bo'lgan ijodkor o'z asarlarida go'zal obrazlar yaratish bilan birga ularga yetuk falsafiylikni ham singdira olgan. O'lmas so'z san'atkori Usmon Azim ana shunday





go‘zal obrazlar tizimida tabiat manzaralarini, yil fasllarini o‘ziga xos uslubda va ajoyib ohangda tasvirlay oldi. Ayni shu obrazlar orqali o‘zining ichki dunyosini, o‘z menini tabiat bilan borliq bilan bir butunlikda tarannum etdi.

Ajoyib va go‘zal manzaralarni hosil qiluvchi yil fasllarini tasvirlashda yuksak falsafiylik bilan bir qatorda milliy o‘ziga xoslik va ma‘naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan obrazlardan individual uslubda foydalangan Usmon Azimning fasllarni tasvirlashdagi va bu tasvirga ajib ma‘nolarni singdirishdagi mahoratiga tahsin aytmadan iloj yo‘q. Ijodkor she‘rlarida har bir fasl tasviriga g‘ayritabiiy tarzda falsafiylikni, induviduallikni singdirib boradi. Usmon Azim kuzni tasvir etar ekan bir o‘rinda uni onasi tashlab ketgan bolam deya, bir o‘rinda dilning rozini eshitish uchun Alloh tomonidan yaratilgan maxsus fasl deya, bir o‘rinda esa unga gunohkor deya, boshqa bir o‘rinda esa uni ya‘ni kuzni Navoiy devoni deya ta‘rif etadi.

Ijodkor kuz fasli tasviriga vazminlikni, o‘ychanlikni va hayot ma‘nosini anglab yetgan umr mazmunini singdirib yuborgan.

Kim deding? Men seni tanimayman, kuz.

Kunlaring kunimning begonasidir.

Kuz degan fasl yo‘q. Bog‘dagi ma‘yus

Vaqt asli bahorning vayronasidir.⁴

Inson umriga hamohang tasvirlangan fasllardan biri bo‘lgan oltin kuz ijodkor nazdida yo‘q fasl, kuzni tanimaydi, kuzni tan olmaydi, shunchaki bu faslni yasharish fasli bo‘lgan go‘zal bahorning vayronasi, qarigan bahor, o‘tkinchi hayot, sinashta turmush, bog‘lar oralab kezgan bebolta o‘tinch deya ta‘riflaydi. Ushbu she‘r shu darajada go‘zal tashbehlar ila yozilganki kuzni sherxon hayolida ajoyib tarzda gavdalantiradi. Kuzning tugashini bahorning kavushini xazon barglariga to‘ldirib mangullikka ketishiga qiyos etadi. Butun she‘r davomida “kuz yo‘q” deya yig‘lagan shoir, kuzni tan olmagan ijodkor xazon bilan birga ketmaganidan afsuslanib, “...Ruxning ruhdan quyuq qa‘ridadurman ... Endi kuzakdan ham naridadurman” deya alam chekadi.

Har bir she‘rida falsafiylik nafasi ufurib turgan Usmon Azimning yuqorida “Kim deding” deb boshlanuvchi she‘ri ham aslida umrining xazon fasliga borib qolgan vaqtini tan olmaydigan, qarigan chog‘lariga rozi bo‘lishni xohlamaydigan insonlar tilidan aytilgandek go‘yo. Ammo har bir inson qachondir baribir haqiqatni tan olgani kabi lirik qahramon ham jonning zalvoridan arigan holda o‘zining qariganligini tan oladi.

⁴ **Азим, Усмон.** Куз Шерлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва сан’ат нашр. 2001. 205–Б





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Sentyabr – bir oylik sokingina baxt,
Sentyabr – Ollohning ma'sum tortig'i.
Ko'z yoshlarsiz qo'shiq, fojiasiz dard.
Kuzakning dunyoga ogoh yorlig'i.⁵

Har bir ish yoki voqea bo'lishidan oldin uning kelishidan xabar beruvchi bir vosita bo'lgani kabi oylar ham fasllarning kelishini belgilab beradigan bir vositadir. Sentyabr oyi yozning tugashi, kuzakning boshlanishi, shoir ta'riflaganidek, hechkimga da'vosi bo'lmagan oydir. Chunki "yondirgan o'zgadir, muzlatgan o'zga". Sentyabr yondirmaydi ham, muzlatmaydi ham, falakda turna tizilsa – seskanmaydi ham. Sentyabr qalbining to'ridan kuzga boqadi, go'yoki yoshlik davri tugayotganligini bilgan inson umrining keying davriga yurak to'ridan, hayolot olamidan boqqani kabi. Usmon Azim ushbu she'rning oxirida bu oyning hech narsadan qo'rqmasligini, ammo yurak to'lib turganligini, bir barg uzilsa qaylarga borishligini so'ragani holda sentabrning yurakka nisbatan baxtliroq ekanligiga ishora qilmoqda.

Fasllar inson umrining ma'lum davrlariga qiyos etilishi barchamizga ma'lum. Ana shu umrning har bir davrida insonning dunyoqarashi, fikrlashi, hatto ayrim his-tuyg'ulari ham, qalbi ham o'zgarib boradi. Olim Toshboyev ta'kidlaganidek "Qalamkash qalbining o'zgarish va evrilishlari uning asarlarida ko'rinadi. Har qanday asar, odamning ko'zgudagi aksi kabi "Men" ni aks ettiradi"⁶.

Usmon Azim har bir she'rini qanday mavzuda bo'lishidan qat'i nazar yuragidan o'tkazib qalbidan kechirib yozgan. "Ijodkor Mahmud Sa'diy bilan suhbatda – o'zi ta'kidlaganidek – "Boysunday Xudo bergan chiroyli bir maskanda tug'ilganimdanmi, tabiatni yurakdan o'tkazib yaxshi ko'rish menga nasib etdi. Ammo tabiatning tasviri she'ringa aniq ko'chguncha ancha yo'lni bosib o'tdim"⁷. Ana shunday mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan shoir yil fasllarni tasvirlar ekan ularning har biriga ajoyib tarzda o'zining ruhiy holatlarini, qalbining evrilisharini mohirona tarzda singdirib yubora olgan.

Shomda qurbaqalar
Aytdi ashula.
Kunduz surnay chaldi
Chirillovuqlar.
Endi kunduzlarim yoz bilan to'la,
Endi tunlarimdan

⁵ Kўrsatilgan манба. 209- Б

⁶ Кўнгил: ше'рият / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. 23-Б

⁷ Кўнгил: ше'рият / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. 14 -Б





Ketdi sovuqlar.⁸

“Yozdagi kayfiyat“ deb nomlanuvchi ushbu she’rida ijodkor yoz manzaralarini tasvirlar ekan, bu manzaralarning insonga ajoyib kayfiyat bag’ishlashini, uni xushbaxt etishini ta’kidlaydi. O’zini baxtiyor sezyotgan shoir yoz oqshomida tinimsiz qo’shiqlar kuylaydi, ketgan bahorga parvo qilmaydi, o’tgan umrini sezmaydi. Yoz – umrning ajoyib pallasasi. Haqiqiy hayotning go’zalligini anglab yetayotgan inson kunduzlari ham tunlari ham ajoyib ohangdorligini tasvirlaydi.

Yozda o’ltir bog‘da dilingni ochib,

Yashil hayollarni quchsin yuraklar.

Shamol iplariga osilib – ajib

Halinchak uchmoqda ana teraklar.⁹

Yozgi bog‘dan kelgan she’rlar turkumiga kiruvchi ushbu she’rida shoir ajoyib tashbehlar orqali inson umrining yoshlik davrida qilishi kerak bo‘lgan ishlarni lirik qahramonga uqtirmoqda. Har bir she’rida falsafiylik aks etgan ijodkorning ushbu she’ri ham ayni shu xisdan holi emas. Badiiy adabiyotda bahor fasli - bolalik, yoz - yoshlik, kuz – o’rta yoshlik, qish esa qarilik davriga mengzatiladi. “Yashil hayollarni quchsin yuraklar” yashil rang bizning dinimizda ilohiy rang hisoblanadi. Shoir hech bir so’zni o’rinsiz yoki behuda ishlatmaydi. Ayni hayotning shu pallasida yurak ilohiylikni tushunib yetishi kerakligini, chunki ayozlarda muzlash, kuzlarda mungranish borligini, shu sababdan hozir o’zini suvga (bu o’rinda suvni insonni poklovchi vosita sifatida qalbini ham poklashi nazarda tutilgan bo’lsa ajab emas) otib zilollikni dilga ko’chirish kerakligini, yurakka alanga o’tar darajada toblanish kerakligini va dildan g’ussaning nomlarini o’chirish lozimligini ta’kidlamoqda. Ayni ana shu inson umrining barqurgan davrini endi o’zi uchun emas, balki oilasi uchun sarflashi, tiriklik rasmini bajo etmoqlikka o’zida kuch topishi kerakligini (onasini ham, ayolini ham, bolasini ham ko’nglini olishi, ularni xushnud etmog’ligi ma’nosida) g’amga emas, gullarga – baxtga tikilmog’ligini, bu yorug’ olamda yashab turganligiga inson o’zini ishontira olmoqligi lozimligini uqtirmoqda. Chunki odamzod qaysidir ma’noda ayni shu davrda o’zining kelgusi hayoti uchun - atrofdagi insonlarning unga kelajakdagi munosabatlari uchun tamal toshini qo’yadi, hozir kimga qanday munosabatda bo’lsa vaqt o’tgach ana shu munosabat albatta o’ziga qaytadi. Chunki bu duno qaytar dunyo. She’rdagi “ Onagga kulib boq – tortmasin azob”, “ Bolang bilan gaplash otaday vazmin”, “ Kechqurun choy ichgin xotining bilan, “senga ko’ylaklar ham olamiz” deb ayt” jumalari ayni shu holatga mos keluvchi jumalardir.

⁸Курсатилган манба 405-Б

⁹Азим, Усмон. Куз Шерлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва сан’ат нашр. 2001. 348-Б





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Qish kezmasdi dil ochar mahal
Ko'chalarda burqsitib nafas.
Qish – dahlizda jon saqlar sandal,
Qish – pechkali uylarga havas.¹⁰

“Qish” deb nomlangan ushbu she'rda shoirning bolalik davridagi qish manzarasi tasvirlangan. Bolalik xotiralarini yodga olgan shoir o'sha davrlardagi qishning o'ziga xosliklarini, ajoyibotlarini, shuningdek bu faslning bola ko'nglidaydek oppoq, beg'ubor o'tganligini go'zal tashbehlar orqali takidlaydi. Ijodkorning bolalik yillaridagi qish palto kiymagan, qo'lqopi yo'q, faqat yamoqli, lekin ardog'li kalishga ega bo'lgan. Shuningdek qish deganda Usmon Azimning hayolida mol boqib muzlagan bolaning darvozadan titrab kirishi gavdalanadi. “Qish – zindondan chiqqan Alpomish, Qish – Barchinning siniq nolishi”¹¹ – o'sha vaqtlarda qish hayajonda tovushi titrab kitob o'qir edi deya takidlaydi shoir. Bundan kelib chiqadiki, uzun qish kechalarida Usmon Azim - kitob o'qiyotgan qish. Surxon elining asl farzandi bo'lgan, tomirida Alpomish qoni oqayotgan ijodkorning xalqona ohanglarga mehr-u muhabbati xotira she'rlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. She'rning davomini o'qish mobaynida ijodkor qalbidagi toshlar ertak haroratidan erib, kitobga to'kilgan yoshlar orzuning sharror zabtidan ekanligi va bu ma'lum ma'noda qish kunlariga borib taqalishi ham namoyon bo'ladi.

Butalarda - yo'lning chetida-
Oppoq qordan oppoq koshinlar.
Qor uradi ko'cha betiga,
Yo'l paypaslab borar moshinlar.¹²

“She'r–ruh mahsuli. Ruhiyati kuchli shaxslarning she'ri ham o'quvchiga jodu-sehr kabi ta'sir etadi”¹³. Usmon Azimning she'rlari ham mana shunday ta'sir kuchiga ega. Hayotning o'tkinchi ekanligi, mana shu o'tkinchi hayotning mangu oyatlarini o'qiyotgan qorning “erkin-ozod” ligi, “jimgina faryod” ligi, “qalb uchun maxsus” ligi va “eng bexush mahbus” ekanligi hamda ayni shu qorning birgina uchquni shoir Usmon Azim ekanligi she'rdan anglashiladi. Shuningdek ijodkor umrining ana shu qorli pallasida umrining ham qanotli qordek uchganligini, vaqtini shu daqiqada ko'ziga ko'ringanligini va aziz Hayotni quchoqlaganligini ham takidlab o'tadi. Ayni shu chog'da shoir yuragida ham yog'moq mavsumi,

¹⁰ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2018. 4-Б

¹¹ Курсатилган манба 4-Б

¹² Азим, Усмон. Куз Шерлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва сан'ат нашр. 2001. 135-Б

¹³ Кўнгил: ше'рият / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. 20-Б





umrining zavoli esa yaqin , shu sababdan hayotga ham “...qaramagin endi betimga. Bosib o‘tgin, Hayot... Bemalol”¹⁴ deya murojaat qilmoqda.

Bolari tentirar – gullarga cho‘ri,
Kapalak jonsarak – bog‘ga xizmatkor.
Quyoshning tillarang jismini so‘rib,
Namxush havolarda ko‘karar bahor¹⁵.

“Bahorgi bog‘dan kelgan she‘rlar” turkumiga kiruvchi ushbu she‘rda yasharish fasli bo‘lgan go‘zal bahorning ajib harakatlari, butun tabiatning qayta uyg‘onishi, hatto toshlarning ham kamol topishi kuylangan. Bolarini gullarga cho‘ri, kapalaklarni bog‘ga xizmatkor ekanligidan ilhomlangan shoir o‘zini “dunyoning toshqinsel telba soyiman” deya ataydi. Yam- yashil jahonga hamohang holda ijodkor qalbida ham jo‘shqin hislar, ajib tuyg‘ular gullamoqda, yashnamoqda go‘yoki.

Xulosa: O‘zbek xalqining ruhiy dunyosi, orzu-umidlari, milliy madaniyati bilan uzviy bog‘langan she‘riyatga ega bo‘lgan , fikrlar ko‘lamining zalvorliligi bilan ajralib turadigan ijodkor Usmon Azim yil fasllarini tasvir etishda o‘ziga xos uslubdan, falsafiy ohanglardan, go‘zal va ajoyib tashbehlardan shu darajada mukammal foydalana olganki, bu hol o‘quvchi ongida har bir faslni jonlantirish hamda she‘rga yuklangan ma‘noni, borliq haqiqatini oson tushunishga imkoniyat yaratadi. Shaxsning ma‘naviy tarbiyasiga chinakkam ma‘noda go‘zal ta’sir eta oladigan shoir ijodi u yaratgan barcha asarlarda o‘zini mukammal tarzda namoyon eta olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2018. 456 б.
2. Азим, Усмон. Куз Шерлар. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва сан’ат нашр. 2001. 446 б
3. Кўнгил: ше’рият / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. 320 б
4. Umarali Normatov Ijod sehri. Sharq, 2007.
5. Qayumov A. She’riyat jilolari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996 – 128 b.

¹⁴ Азим, Усмон. Куз Шерлар. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва сан’ат нашр. 2001. 135-Б

¹⁵ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2018. 340-Б

